

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI**

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

**1-2022**

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

**Muassis:** Farg'ona davlat universiteti.

«FarDU. ILMIY XABARLAR – НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК. ФерГУ» "Scientific journal of the Fergana State University" jurnali bir yilda olti marta elektron shaklda nashr etiladi.

Jurnal filologiya, kimyo hamda tarix fanlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnaldan maqola ko'chirib bosilganda, manba ko'rsatilishi shart.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020 yil 2 sentabrda 1109 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Muqova dizayni va original maket FarDU tahririy-nashriyot bo'limida tayyorlandi.

---

**Tahrir hay'ati**

**Bosh muharrir**  
**Mas'ul muharrir**

SHERMUHAMMADOV B.SH.  
ZOKIROV I.I

FARMONOV Sh. (O'zbekiston)  
BEZGULOVA O.S. (Rossiya)  
RASHIDOVA S. (O'zbekiston)  
VALI SAVASH YYELEK (Turkiya)  
ZAYNOBIDDINOV S. (O'zbekiston)

JEHAN SHAHZADAH NAYYAR (Yaponiya)  
LEEDONG WOOK. (Janubiy Koreya)  
A'ZAMOV A. (O'zbekiston)  
KLAUS XAYNSGEN (Germaniya)  
BAXODIRXONOV K. (O'zbekiston)

G'ULOMOV S.S. (O'zbekiston)  
BERDISHEV A.S. (Qozog'iston)  
KARIMOV N.F. (O'zbekiston)  
CHESTMIR SHTUKA (Slovakiya)  
TOJIBOYEV K. (O'zbekiston)

---

**Tahririyat kengashi**

QORABOYEV M. (O'zbekiston)  
OTAJONOV S. (O'zbekiston)  
O'RINOV A.Q. (O'zbekiston)  
RASULOV R. (O'zbekiston)  
ONARQULOV K. (O'zbekiston)  
YULDASHEV G. (O'zbekiston)  
XOMIDOV G'. (O'zbekiston)  
DADAYEV S. (O'zbekiston)  
ASQAROV I. (O'zbekiston)  
IBRAGIMOV A. (O'zbekiston)  
ISAG'ALIYEV M. (O'zbekiston)  
TURDALIYEV A. (O'zbekiston)  
AXMADALIYEV Y. (O'zbekiston)  
YULDASHOV A. (O'zbekiston)  
XOLIQOV S. (O'zbekiston)  
MO'MINOV S. (O'zbekiston)  
MAMAJONOV A. (O'zbekiston)  
ISKANDAROVA Sh. (O'zbekiston)  
SHUKUROV R. (O'zbekiston)

YULDASHEVA D. (O'zbekiston)  
JO'RAYEV X. (O'zbekiston)  
KASIMOV A. (O'zbekiston)  
SABIRDINOV A. (O'zbekiston)  
XOSHIMOVA N. (O'zbekiston)  
G'OFUROV A. (O'zbekiston)  
ADHAMOV M. (O'zbekiston)  
O'RINOV A.A. (O'zbekiston)  
XONKELDIYEV Sh. (O'zbekiston)  
EGAMBERDIYEVA T. (O'zbekiston)  
ISOMIDDINOV M. (O'zbekiston)  
USMONOV B. (O'zbekiston)  
ASHIROV A. (O'zbekiston)  
MAMATOV M. (O'zbekiston)  
SIDDIQOV I. (O'zbekiston)  
XAKIMOV N. (O'zbekiston)  
BARATOV M. (O'zbekiston)  
ORIPOV A. (O'zbekiston)

---

**Muharrir:** Sheraliyeva J.

**Tahririyat manzili:**

150100, Farg'ona shahri, Murabbiylar ko'chasi, 19-uy.  
Tel.: (0373) 244-44-57. Mobil tel.: (+99891) 670-74-60  
Sayt: [www.fdu.uz](http://www.fdu.uz). Jurnal sayti

---

Bosishga ruxsat etildi:  
Qog'oz bichimi: - 60x84 1/8  
Bosma tabog'i:  
Ofset bosma: Ofset qog'oz.  
Adadi: 10 nusxa  
Buyurtma №

FarDU nusxa ko'paytirish bo'limida chop etildi.

**Manzil:** 150100, Farg'ona sh., Murabbiylar ko'chasi, 19-uy.

---

**Farg'ona,**  
**2022.**

<b>Sh.Hakimova</b> O'zbekistonda elektroenergetika sanoatining huquqiy-meyoriy asoslari .....	113
<b>J.Bo'tayev</b> XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida samarqand viloyati qishloq xo'jaligidagi o'zgarishlar .....	118
<b>I.Bohodirov, B.Jurayev</b> Turkistonda XIX asr o'rtalarida armiya va harbiy ta'lim .....	123
<b>A.Yuldashev</b> Davlat, boshqaruv va rahbarlik masalasiga oid tarixiy qarashlar va zamonaviy yondashuvlar.....	129
<b>B.Ataxanov</b> Mustaqillikning ilk yillarida o'zbekistonning Belarus respublikasi bilan savdo-iqtisodiy munosabatlarning o'ziga xos xususiyatlari .....	136
<b>Sh.Husanova</b> Qadimgi Farg'onaning samoviy tulporlari .....	140
<b>N.Komilov</b> Turkiston muxtoriyati bosh vaziri o'rinbosari – Islom Shoahmedov hayoti va faoliyatining yangi qirralari.....	146
<b>G'.Raxmonov</b> Farg'ona vodiysida suvdan foydalanishni yaxshilashda suvni tejovchi sug'orish texnologiyalarini joriy etishning qulayliklari.....	151
<b>O.Abdunosirova</b> Iskandar Mirzo – madaniyat va san'at homiysi sifatida .....	155
<b>Z.Abdullayev</b> Turkistonda mol-mulk musodarasini va rekvizitsiya .....	158
<b>S.Isroilova, G.Karimova</b> Tarix fanini o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar va interfaol usullarni loyihalashtirish.....	163

## ADABIYOTSHUNOSLIK

<b>Z.Tashtemirova, E.Gizdulin</b> Lirik she'riyatning turga oid xususiyatlari .....	167
<b>N.Sidikova</b> Yurt tarixi va el taqdiri talqinlari .....	173
<b>A.Eshdavlatova</b> Rauf parfi ijodida erkin ruhning nostandart isyoni ifodasi .....	177
<b>J. Xalliyev</b> Ogahiy tarixiy va lirik asarlarida falsafiy-ma'rifiy istilohlar istifodasida mushtaraklik.....	182
<b>E.Qurbonova</b> Yassaviy "Pirim" deb ulug'lagan zot .....	186

## TILSHUNOSLIK

<b>K.Yusupova</b> Imperativ konstruksiyalarda so'z tartibi.....	190
<b>Yu.Shuxratova, A.Mamajonov</b> O'xshatish munosabatini ifodalovchi morfologik vositalar.....	195
<b>A.Yuldashev</b> So'z yasalanishining kognitiv aspekti .....	198
<b>X.Dusmatov</b> O'zbek milliy so'z o'yinlarining reklama matnlarida ifodalanishi.....	204
<b>N.Umarova, D.Madazizova</b> Tilshunoslikda "argo" tushunchasi talqinlari.....	211
<b>G.Majidova</b> Til darslarida madaniyatni qamrab olish .....	215
<b>L.Yo'ldosheva</b> Muzeylarda turli xil mashg'ulotlar orqali belgilangan jamoalar bilan munosabatlarni shakllantirish .....	220
<b>N.Mamajonova</b> Til darslarida lug'at boyligini oshirishni ilmiy tadqiq qilish .....	224
<b>G.Isakova</b> "Qanotli so'z" va "sitata" tushunchalarining o'zaro farqi.....	229
<b>Z.Alimova</b> Ayrim forsiy frazeologik birliklarning o'zbek tilida qo'llanilishi xususida .....	233
<b>И.Попубай</b> Zamonaviy lingvistik bilimlarda "axborot texnologiyalari diskursi" belgilash ta'rifi.....	238

**TARIX FANINI O'QITISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR VA INTERFAOL USULLARNI LOYIHALASHTIRISH**

**DESIGN OF MODERN PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES AND INTERACTIVE METHODS IN TEACHING HISTORY**

**ПРОЕКТИРОВАНИЕ СОВРЕМЕННЫХ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ И ИНТЕРАКТИВНЫХ МЕТОДОВ В ПРЕПОДАВАНИИ ИСТОРИИ**

**Isroilova Sanobarxon Mamedjanovna<sup>1</sup>, Karimova Gulnoza Yigitaliyevna<sup>2</sup>**

<sup>1</sup>Isroilova Sanobarxon Mamedjanovna

– Farg'ona politexnika instituti, o'qituvchi,

<sup>2</sup>Karimova Gulnoza Yigitaliyevna

– Farg'ona davlat universiteti o'qituvchi,

**Annotatsiya**

*Ma'lumki, ta'limdan asosiy maqsad talabalarga bilim berishgina emas, balki bilim olish yo'llarini o'rgatish, ularni ta'lim jarayonining faol ishtirokchisiga aylantirish demakdir. Yangicha ijtimoiy, iqtisodiy sharoitda ta'limda o'qitish tizimini takomillashtirish, darslarni jahon andozalariga mos ravishda tashkil qilish o'quvchi faolligini oshiradigan muhim omillardan hisoblanadi.*

*Ushbu maqolada tarix fanini o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar va interfaol usullarni loyihalashtirish masalalari tadqiq etilgan.*

**Аннотация**

*Известно, что основной целью образования является не только воспитать учащихся, но и научить их учиться, сделать их активными участниками образовательного процесса. Совершенствование системы образования в новых социально-экономических условиях, организация уроков в соответствии с международными стандартами являются важными факторами повышения активности учащихся.*

*В данной статье рассматривается разработка современных педагогических технологий и интерактивных методов в преподавании истории.*

**Abstract**

*It is known that the main purpose of education is not only to educate students, but also to teach them how to learn, to make them active participants in the educational process. Improving the system of education in the new social and economic conditions, the organization of lessons in accordance with international standards are important factors in increasing student activity.*

*This article examines the design of modern pedagogical technologies and interactive methods in the teaching of history.*

**Kalit so'zlar:** *an'anaviy ta'lim, pedagogik texnologiya, hamkorlikda o'qish, loyiha texnologiyasi, innovatsion ta'lim texnologiyalari, interfaol ta'lim usullari, an'anaviy usul.*

**Ключевые слова:** *традиционное образование, педагогическая технология, совместное обучение, проектная технология, инновационные технологии обучения, интерактивные методы обучения, традиционный метод.*

**Keywords:** *traditional education, pedagogical technology, collaborative learning, project technology, innovative learning technologies, interactive teaching methods, traditional method.*

**KIRISH**

O'zbekistonda ijtimoiy hayotning barcha sohalarida amalga oshirilayotgan islohotlarning maqsadi inson va uning manfaatlarini, uning xavfsizligi va farovonligini ta'minlash hamda barkamol avlodni voyaga etkazishga qaratilgan. O'zbekiston davlat mustaqilligini qo'lga kiritgandan keyingi qisqa vaqt ichida bosib o'tgan taraqqiyot yo'li asrlarga arzigulik mazmun va mohiyat kasb etmoqda. Ma'lumki, taraqqiyotni harakatga keltirishda va turmushda ro'y berayotgan jarayonlarga o'z ta'sirini o'tkazishda jamiyat ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy-ma'naviy yangilanishining muhim sub'yekti bo'lgan yoshlarni barkamol shaxs qilib tarbiyalash muhim ahamiyatga ega. Endilikda fan, texnika va innovatsion texnologiyalarning rivojlanishi natijasida o'quv-tarbiya jarayonida interfaol uslublar (innovatsion pedagogik va axborot texnologiyalari)dan foydalanib, ta'limning samaradorligini ko'tarishga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda. Ta'lim tizimida zamonaviy texnologiyalar qo'llanilgan mashg'ulotlar egallanayotgan bilimlarni yoshlar tomonidan o'zlari qidirib topishlari, mustaqil o'rganib, ularni tahlil qilishlari, o'z bilimlarini baholashlari, to'g'ri xulosalar chiqarishga qaratilgan.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR**

Ma'lumki, ta'lim jarayoni ta'lim texnologiyasining asosini, yadrosini tashkil etadi hamda ta'lim maqsadi, ta'lim mazmuni, o'quvchi, ta'lim shakli, metod, vositalari va ta'lim beruvchi kabi unsurlardan iborat tizim sifatida namoyon bo'ladi. Tarkibiy unsurlar o'zaro birlik va aloqadorlikda ta'lim jarayonining umumiy mohiyatini yoritishga xizmat qiladi. O'qitish jarayonida ta'limiy, tarbiyaviy va kamol toptirish funksiyalarini ajratish bilimlarini o'zlashtirish hamda zarur shaxsiy sifatlarni shakllantirish uchun yaxshi sharoitlarni vujudga keltiradi. Darsda bilimlarni o'zlashtirish jarayonida qarashlar va ma'naviy sifatlarni ham shakllanadi, albatta, ya'ni mazkur funksiyalarning birligi va o'zaro bog'liqligi kuzatiladi.

"Bugungi kunda pedagoglarning innovatsion faoliyat ko'nikma, malakalariga ega bo'lishlari muhim ahamiyatga ega. Pedagoglar tomonidan innovatsion faoliyat ko'nikma, malakalarini o'zlashtira olishlarida ularning innovatsion yondoshuvga ega bo'lishlari talab etiladi. O'z mohiyatiga ko'ra pedagoglar tomonidan innovatsion faoliyat ko'nikma, malakalarining o'zlashtirilishi ularda innovatsion yondoshuvni qaror topishi asosida kechadi." [1, 21]

Ayni vaqtda Respublika ijtimoiy hayotiga shiddatli tezlikda axborotlar oqimi kirib kelmoqda va keng ko'lamni qamrab olmoqda. Axborotlarni tezkor sur'atda qabul qilib olish, ularni tahlil etish, qayta ishlash, nazariy jihatdan umumlashtirish, xulosalash hamda talabaga etkazib berishni yo'lga qo'yish ta'lim tizimi oldida turgan dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Ta'lim-tarbiya jarayoniga pedagogik texnologiyani tadbiiq etish yuqorida qayd etilgan dolzarb muammoni ijobiy hal etishga xizmat qiladi. "Usullarning ma'lum bir tartibda qo'llanish jarayonida har bir harakat maqomi kishining oldiga qo'yilgan maqsad ko'rsatkichlari hamda o'sha jarayonda hukm suruvchi qonuniyatlardan kelib chiqib, amalga oshiriladi." [2, 23]

Tarix darslarida ta'limning texnika vositalaridan, pedagogik texnologiyalardan foydalanish darsning samaradorligini oshiradi. Pedagogik texnologiyalar o'qitish va o'rganish sifatini ko'tarishga, o'quv materialini qiziqib o'rganishiga va puxta o'zlashtirishiga xizmat qiladi.

"Buyuk faylasuf Konfutsiyning: "Men eshitaman va unutam, men ko'raman va eslab qolaman, men bajaraman va tushunaman", - degan fikri ayniqsa hozir ta'limda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bunda o'quvchi ko'z bilan ko'rib, o'zi mustaqil bajargandagina, mavzuning mazmuni va mohiyatini to'liq anglashi mumkin." [3, 74]

"Texnologiya" so'zi fanga 1872 yilda kirib kelgan va yunoncha «techne» so'zidan olingan bo'lib, mahorat, san'at, malaka, "logos" esa - so'z, ta'limot ma'nosini anglatadi. Biroq bu ifoda zamonaviy texnologik jarayonni to'liq tavsiflab bera olmaydi, texnologik jarayon deyilganda - mehnat qurollari bilan mehnat vositalariga ta'sir etish natijasida mahsulot yaratish bo'yicha qilingan mehnat va jarayonlar tushuniladi. Texnologiya har doim zaruriy vositalar va sharoitlardan foydalanib, ob'ektga yo'naltirilgan maqsadli amallarni muayyan ketma-ketlikda bajarishni ko'zda tutadi. Ushbu tushunchalarni o'quv jarayoniga ko'chiradigan bo'lsak, o'qituvchi (pedagog)ning o'qitish vositalari yordamida o'quvchi-talabalarga muayyan sharoitlarda ko'rsatgan tizimli ta'siri natijasida ularda jamiyat uchun zarur bo'lgan va oldindan belgilangan ijtimoiy sifatlarni intensiv tarzda shakllantiruvchi ijtimoiy hodisa, deb ta'riflash mumkin. Ta'riflar nazariyasi bo'yicha bunday ijtimoiy hoidisani pedagogik texnologiya, desa bo'ladi.

"XXI asrning boshlarida bu ta'rif yana o'zgarib, pedagogik texnologiyaning - berilgan yoki mavjud sharoitda pedagogik vazifalarga maqbul erishish yo'llarini ongli loyihalash, deb qayd etilmoqda. Demak, texnologiya sub'ekt tomonidan ob'ektga ko'rsatilgan ta'sir natijasida sub'ektda sifat o'zgarishiga olib keluvchi jarayon tushuniladi. Texnologiya har doim zaruriy vositalar va sharoitlardan foydalanib, ob'ektga yo'naltirilgan aniq maqsadli amallarni muayyan ketma - ketlikda bajarishni ko'zda tutadi" [3, 76]

Hozirgi kunda O'zbekistonda ta'lim jarayoniga quyidagi talablar qo'yilmoqda:

- Sifat, ya'ni aniq, ma'lum ta'lim darajasini olish;
- Ommaviy, ya'ni, talab etilayotgan ta'lim darajasiga bir vaqtning o'zida ko'p sonli talabalar erishishlari lozim;
- Samaradorlik, ya'ni, ta'limga sarflanayotgan harajatlar eng ko'p samara berishi zarur.

Bu vazifalarni hal etish ta'lim jarayonini texnologiyalashtirishga, ta'lim texnologiyalarini ishlab chiqish va tatbiq etishga olib kelmoqda "Zotan tarbiya va ta'lim asta-sekin amalga oshadi hamda o'quvchiga barcha darslar majmui qanday ta'sir etishiga, o'quvchi o'qituvchi rahbarligida ongli va faol bajaradigan ishlarning hajmi hamda muntazamligiga bog'liqdir. O'qituvchining vazifasi – darsda tafakkur va faoliyatning ana shu turlarini eng to'g'ri uyg'unlashtirishdir. Binobarin, bunday uyg'unlik dars samaradorligini oshirishning muhim omilidir." [4, 213]

## TARIX

**MUHOKAMA**

Pedagogik texnologiyaning asosiy tamoyillari va ularning mohiyatini bilish mazkur jarayon haqida aniq tasavvurga ega bo'lish imkoniyatini yaratadi. Pedagogik texnologiya umumiy didaktik tamoyillarga ega bo'lishi bilan birga, quyidagi aynan o'zigagina xos bo'lgan tamoyillarga ham ega:

**1. Bir butunlik, yaxlitlik tamoyili** ikki jihatni o'zida aks ettiradi: 1) ta'lim, tarbiya hamda shaxs kamoloti (taraqqiyoti) birligi; 2) pedagogik texnologiyaning muayyan, qat'iy tizimga egaligi, "tizimlilik" tushunchasi bu o'rinda ham ma'lum o'quv fanini o'qitish jarayoniga, ham umumiy ta'lim jarayoniga xoslikni anglatadi.

**2. Asoslilik (fundamentlik) tamoyili** fanlarning o'rganish ob'ekti, ichki mohiyati va xususiyatlariga ko'ra turli yo'nalish (blok)larga bo'lib o'rganish afzalliklarini ifoda etadi. O'quv fanlari tabiiy, ijtimoiy va gumanitar fanlar tarzida turkumlashtirilgan. Har bir o'quv fani uning uchun "yadro", "o'zak" sanaluvchi axborotlarga ega bo'lib, ushbu axborotlar shaxs tomonidan fanlar asoslarining o'rganilishi, aniq mutaxassislik bo'yicha mustaqil bilim olish, o'zlashtirilgan bilimlarni kengaytirib borish yo'lida tayanch tushunchalar bo'lib xizmat qiladi.

Bunday yondashuv ma'lum yo'nalish bo'yicha mutaxassislarni tayyorlash jarayonida fanlararo aloqadorlik xususiyatidan foydalanish imkonini ham beradi. O'quv fanlarining muayyan yo'nalishlar tarzida biriktirilishi shaxs xotirasiga nisbatan zo'riqishni kamaytiradi, shuningdek, fikrlash quvvatini oshiradi, tafakkurning yuzaga kelishini ta'minlaydi.

**3. Madaniyatni anglash (madaniy hayotning rivojlanishiga muvofiqlik) tamoyili** nemis pedagogi A. Disterveg tomonidan XIX asrda iste'molga kiritilgan bo'lib, bugungi kunga qadar ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Madaniyatni anglash tamoyili talabalarga ijtimoiy jamiyatning madaniy taraqqiyoti darajasidan kelib chiqib ta'lim berilishini nazarda tutadi. O'tgan asrda ta'lim samaradorligini ta'minlovchi yetakchi omil sifatida pedagogning bilim darajasi va mahorati e'tirof etilgan bo'lsa, bugungi kunda o'qituvchining bilimi, salohiyati hamda mahoratining yuqori darajada bo'lishi bilangina muvaffaqiyatlarni qo'lga kiritib bo'lmasligi barchaga ayon.

**4. Ta'lim mazmunini insonparvarlashtirish va insoniylashtirish tamoyili.** Tilga olingan har ikki tushuncha ham lug'aviy jihatdan (yunon. "humanus" – insoniylik, "humanitas" – insoniyat), bir o'zakka ega bo'lsa-da, ularning har biri o'ziga xos ma'nolarni ifodalaydi. Insonparvarlashtirish ta'lim muassasalarida o'rganiladigan fanlar sirasiga ijtimoiy fanlar (tarix, madaniyatshunoslik, sotsiologiya, psixologiya, filologiya va boshqalar)ning kiritilishini, insoniylashtirish tushunchasi esa shaxs va uning faoliyatiga nisbatan ijobiy yondashuvni anglatadi.

Endilikda pedagog talabalar faoliyatini avtoritar (yakka hokimlik) tarzida boshqarmay, balki ta'limiy hamkorlik g'oyalariga sodiqlik asosida ta'lim jarayonini insoniylashtiradi yoki boshqacha aytsak, ta'limni insoniylashtirish tamoyiliga amal qilinishini ta'minlaydi. Ushbu holat o'z navbatida yuksak ma'naviyatli shaxsning shakllanishiga olib keladi.

**5. O'qitib tadqiq etish, tadqiq etib o'qitish tamoyili.** Ushbu tamoyil quyidagi ikki jihatni yoritishga xizmat qiladi: 1) ta'lim muassasalarining har bir o'qituvchisi o'z fani sohasiga talabalarni jalb qilgan holda tadqiqotlarni olib borishi lozim; 2) o'qituvchi ta'lim texnologiyasini ishlab chiqadi, uni amaliyotda sinab ko'radi, kuzatadi va tuzatishlar kiritadi, ya'ni, u ta'lim jarayonini tadqiq etadi.

**6. Ta'limning uzluksizligi tamoyili** ta'lim oluvchilarning kasbiy sifatlarga ega bo'lishlari, mavjud sifatlarning hayotiy faoliyat davomida takomillashib borishini nazarda tutadi. Shaxsning butun umri uchun asqotishi mumkin bo'lgan bilimlarni berish mumkin emas, zero, mavjud bilimlar har besh-o'n yil mobaynida o'zgarib, mazmunan boyib boradi. Demak, mazkur tamoyil o'qituvchining o'z faoliyatida mustaqil ta'limni tashkil etishga e'tibor berishi, pedagog yetakchiligini ta'minlagan ta'limdan talabalarining mustaqil bilim olishlari uchun shart-sharoitlar yaratib berishni ifodalaydi.

**7. Faoliyatli yondashuv tamoyili** nazariya va amaliyotning didaktik bog'liqligiga asoslanadi. Didaktika nazariyasida bilim tushunchasi quyidagi ikki xil ma'noda izohlanadi: a) ta'lim oluvchilar o'zlashtirishi lozim bo'lgan bilimlar; b) ular tomonidan o'zlashtirilib, amaliy faoliyat jarayonida qo'llaniladigan, shaxsiy tajribaga aylangan bilimlar.

Bilimlar faoliyat jarayonida mustahkamlanadi, shu sababli talabalarda nazariy bilimlarni amalda qo'llay olish iqtidorini tarbiyalash lozim. Amaliyotdagi tadbqiqiga ega bo'lmagan bilimlar tez orada unutilib yuboriladi.

Hozirgi vaqtda ta'lim amaliyotida loyihaning xilma-xil turlaridan foydalaniladi:

- 1) yetakchi faoliyat turiga ko'ra: tadqiqot, amaliy yo'naltirilgan va axborotli;
- 2) fanga yo'naltirilganligiga ko'ra: monoloyiha va fanlararo loyiha;
- 3) davomiyligiga ko'ra: o'zoq muddatli, o'rta muddatli, qisqa muddatli;
- 4) loyiha ishtirokchilarining soniga ko'ra: individual va guruhli.

Mazkur o'quv loyihalarining har biri o'zining maqsadi, natijasi va mavzu bahsi yuzasidan bir-biridan farqlanadi. Masalan, axborot tavsifiga ega loyihaning maqsadi muammoning holati to'g'risida ma'lumot to'plash, uning tahlili, umumlashtirilishi, yoritilishi va muammoni hal etishning mavjud usullari va vositalari tasnifi, ularning ustunliklari va kamchiliklarini izohlash (asoslash)dan iborat bo'lsa, tadqiqotchilikka doir loyihada esa, tadqiqotni amalga oshirish, tadqiqot asosida muammoning asoslangan izohi, kelgusida rivojlanish uchun yangi muammolarni asoslash maqsad sifatida belgilanadi.

Rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatib turibdiki, yuqori malakali, raqobatbardosh kadrlar tayyorlashda quyidagilar hal qiluvchi ahamiyat kasb etar ekan:

1. Ta'lim, fan va ishlab chiqarishning o'zaro samarali aloqadorligi.
2. Ta'lim korxonalari va professional ta'lim dasturlari turlarining xilma-xilligi, ularning fan va texnikaning eng so'nggi yutuqlari, iqtisodiyot va texnologiyalarning eng yuqori andozalari va ko'rinishlaridan foydalanish.
3. Professional ta'lim tizimini ustuvor va foyda keltiruvchi iqtisodiy tarmoqqa aylantirish.
4. Ta'lim muassasalarini zamonaviy o'quv - metodik adabiyotlar bilan ta'minlash va ularning moddiy - texnik bazasini yaratish hamda ularning moliyaviy ko'rsatkichlarini mustahkamlash.
5. Professional ta'lim tizimiga eng yuqori malakali o'qituvchilarni va mutaxassislarni jalb ettirish.
6. O'quv jarayonini axborotlashtirish va kompyuterlashtirish.
7. O'qituvchilarni yuqori darajada moddiy rag'batlantirish va ularni ijtimoiy himoya qilish.

#### **XULOSA.**

Umuman aytganda, ta'lim jarayonida pedagogik texnologiyalardan foydalanish, o'qish jarayonining asosiy strukturasi, elementlari, xususan o'quv materialining mazmuni, ta'lim metodlari, faoliyat usullari, shakllari va vositalarining to'g'ri amalga oshuvi hamda o'zaro ta'sirini ta'minlaydi.

#### **ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES):**

1. N.A.Muslimov, M.H.Usmonboyeva va boshq. Innovatsion ta'lim texnologiyalari. –Toshkent, 2015 yil. (. N.A.Muslimov, M.H.Usmonbaeva and others. Innovative educational technologies. –Tashkent)
2. B.Ziyomuxammadov. Pedagogika. O'quv qo'llanma. –Тошкент, 2006 йил. (B.Ziyomuxammadov. Pedagogy. Study guide. –Tashkent)
3. A.R.Raxmatulayeva. "Oliy ta'limda tarix fanlarini o'qitish metodikasi" moduli bo'yicha o'quv-uslubiy majmua. –Toshkent, 2018 yil. (A.R.Raxmatulayeva. Educational-methodical complex on the module "Methods of teaching history in higher education". –Tashkent)
4. R.Mavlonova va boshq. Pedagogika. Darslik. 2001 yil. (R. Mavlonova et al. Pedagogy. Textbook)
5. Abdurakhmonova, M. M., ugli Mirzayev, M. A., Karimov, U. U., & Karimova, G. Y. (2021). Information Culture And Ethical Education In The Globalization Century. *The American Journal of Social Science and Education Innovations*, 3(03), 384-388. (Абдурахмонова М.М., Угли Мирзаев М.А., Каримов У.У. и Каримова Г.Ю. (2021). Информационная культура и этическое образование в век глобализации. Американский журнал социальных наук и инноваций в образовании)
6. Kholikova, D. M. (2019). INNOVATIVE ACTIVITY OF MODERN HIGH SCHOOL: TENDENCIES OF DEVELOPMENT. *Scientific Bulletin of Namangan State University*, 1(9), 215-220. (Холикова Д.М. (2019). ИННОВАЦИОННАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ СОВРЕМЕННОГО ВУЗА: ТЕНДЕНЦИИ РАЗВИТИЯ. Научный вестник Наманганского государственного университета)
7. Azizxodjayeva N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. Toshkent, 2006. (Azizkhodjayeva N. Pedagogical technology and pedagogical skills. Tashkent)
8. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardayev A. Ta'limda pedagogic texnologiyalar. –Toshkent, 2008 yil. (Ишмухамедов Р., Абдуқодиров А., Пардаев А. Талимда педагогические технологии. –Тошкент)
9. Usmanov, N., Ganiev, B. S., & Karimova, G. Y. (2021). The Philosophical Basis For The Formation Of Spiritual Maturity Among Young People. *Oriental Journal of Social Sciences*, 33-37. (Усманов Н., Ганиев Б.С. и Каримова Г.Ю. (2021). Философские основы формирования духовной зрелости молодежи. Восточный журнал социальных наук)
10. Alimjanova, M. (2020). PEDAGOGICAL SYSTEM OF FORMATION OF RESPONSIBILITY IN PRIMARY SCHOOL STUDENTS ON THE BASIS OF NATIONAL VALUES. *Theoretical & Applied Science*, (4), 914-917. (Алимжанова, М. (2020). ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ СИСТЕМА ФОРМИРОВАНИЯ ОТВЕТСТВЕННОСТИ У МЛАДШИХ ШКОЛЬНИКОВ НА ОСНОВЕ НАЦИОНАЛЬНЫХ ЦЕННОСТЕЙ. Теоретическая и прикладная наука)

(Taqrizchi: B.Usmanov – tarix fanlari doktori)